

O'ZBEK AYOLI ALPOMISHLAR, TO'MARISLAR TARBIYALASIN

Abxatova Muharram

Misirova Minavvar

Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani

rasmiy o'tinoyilari

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek oilalaridagi qiz bolalarga nisbatan alohida e'tibor, ularni milliy qadriyatlar asosida iboli-xayoli, or-nomusli, tejamkor, oqila qilib tarbiya berish hamda oilalarda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ota- ona, ona, ayol, farzand tarbiyasi, ayolga e'tibor, mehr-muhabbat,

Kirish. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Ona qalbi, ona mehri misilsiz bir ummon kabi to'lqinlarda mavj urib turadi. Uning musaffo osmon kabi keng qalb ko'zini ko'ra olish, tushunishga ega. Ona qalbidan mayin ovoz ila jaranglab chiqayotgan "Alla" kuyi go'dakning ilk eshitgan kuyidir. Ayol Bu muqaddas so'zni tilga olar ekanmiz, dunyoda men uchun yagona va aziz bo'lgan mehridaryo onajonim, mehribonim ko'z o'ngimda gavgaldanadilar. Ayol, ona, barcha so'zlar zaminida misilsiz, siz-u biz anglab yetolmas mazmun borki, bu haqda barcha fikr-u mulohaza yuritsak baribir oz. Ayol, u matonatli, u bardoshli bu hayot haqiqatidir. Ayolning oiladagi o'rni eng asosiy vazifadir. Oilada erkak kishi ya'ni, ota shoh bo'lsa, ayol kishi ona malika hamda vazir hisoblanadi. Ayol, bu kabi e'zozlarga, shon-u shuxratlarga, sharaflarga munosib, ular ilk mehrini qo'shib, bajarayotgan olamshumul ishlari bilan ulug'dir. Ayol! O'zbek ayolining

qiyinchiliklarini yengishi haqida gapirib o`tish shart emas. Ne-ne azob-u uqubatlarga bardoshli bo`lgan, „Kumushbibi, Barchinoy” kabi buyuk siymolarning timsoli hali-hanuz barchaning nigohida o`z aksini yo`qotgan emas. Erta sahardan issiq non yopgan, bolalarini yuvib-tarab, o`qishga ishga kuzatadigan ham onadir. Oilada ota o`g`il bolalarni tarbiyalasa, ona qizlarga to`g`ri yo`lni ko`rsatishi, ularga odob berib, yurish-turish, kiyinish madaniyatini har doim o`rgatishi kerak. Bizning farzandlarimiz g`arb madaniyatiga taqlid qilishi aslo mumkin emas, aksincha, o`zimizning milliy an`ana va qadriyatlarimizga etiqod qilgan holda milliy liboslarimizni kiyib, ibo, hayo, andisha va iffat bilan butun dunyoga o`rnak bo`lishlari kerak. Ayol – bashariyat gultoji, benazir xilqat. Ayol – borliq ko`zguisi. Uning nafis go`zalligi olamni charog`on etadi, chunki uning niyati pok, o`zi pok. Barchalarimizga ayonki, onalarni, ayol zotini e`zozlash el-yurtimiz uchun azal-azaldan ezgu qadriyat bo`lib kelgan. Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasidagi nutqida, bugungi kunda butun dunyo mamlakatlari uchun taalluqli dolzarb tashabbuslarni ilgari surganligi nafaqat yurtimizda balki, xalqaro darajadagi ekspertlar tomonidan ham alohida e`tirof etilmoqda. Ayniqsa, davlatimiz rahbari tomonidan gender tengligi va xotin-qizlarga e`tibor masalasiga alohida urg`u berilgani mamlakatimizda keyingi to`rt yilda bu borada olib borilayotgan ishlarni dunyo ahliga namoyish etdi, desak mubolag`a bo`lmaydi. Yaxshi bilamiz, mamlakatimizda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o`rni va ta`sirini oshirish so`nggi to`rt yilda barcha davlat dasturlarining ustuvor yo`nalishlari sifatida belgilanmoqda. XXI asr o`zbek ayoli – o`z huquqlarini yaxshi bilgan, o`qimishli va faol insondir. U nafaqat, bola parvarishi, uy yumushlarini bajarishi, chiroyli kiyinishi, balkim biznes, sayohat qilish va o`z blogini yuritishi ham mumkin. Shavkat Mirziyoyev hukumat boshiga kelganidan buyon ayollarni rahbar lavzomlarga tayinlashga ko`proq e`tibor berila boshlandi. Bugungi kunda har bir tashkilotda ayol rahbarlar sonini 30 %ga yetkazish - aniq maqsad qilib qo`yilgan. Ayollarimizning jamiyatdagi o`rnini takomillashtirish maqsadida, so`nggi ikki yilda O`zbekiston Xotin-qizlar qo`mitalari va uning hududiy bo`linmalarining faoliyati tubdan o`zgartirilib, aniq vazifalari belgilab olindi. Qabul qilingan farmon doirasida Xotin-qizlar qo`mitasi faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan mustahkamlash

maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 ta qaror, 4 farmoyish va 12 ta chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi. Yurtimizda xotinqizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning barcha sohalarda teng huquqli mehnat qilishi borasida huquqiy asoslar yaratilgan. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, odob-axloq, tarbiya xotin-qizlar, ona va ayol haqidagi g‘oyalar eramizdan oldingi birinchi ming yillik boshlarida shakllanganligi haqidagi ma’lumotlar bor. Insoniyat paydo bo‘libdiki, farzand tarbiyasi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Har qanday jamiyat, tuzumda kelajak avlod tarbiyasi, istiqboli birlamchi vazifalardan hisoblanadi. Zero, Vatan taraqqiyoti, millat istiqboli shu zaminda voyaga yetayotgan o‘g‘il-qizlar kamoli bilan chambarchas bog‘liq. Turli xil davrlarda farzand tarbiyasiga bo‘lgan e’tibor turli darajada bo‘lgan. Qaysi jamiyat o‘z naslining istiqbolini o‘ylamas ekan ana o‘sha jamiyat inqirozga uchrashi, parokandalikka yuz tutishiga tarix sahifalari ko‘p bor guvohlik bergan. Umuman olganda, qiz farzandimiz dunyoga kelgan kundan boshlab uni har tomonlama yetuk, komila etib tarbiyalashga va sog‘lom bo‘lib voyaga yetishiga jiddiy e’tibor qaratamiz. Dunyo go‘zallari qaddu-qomati, tiniq yuziyu va hokazo shunga o‘xshagan diqqatni tortadigan tashqi chiroyi bilan latofatli sanalsada, bunday sifatlar ikkinchi darajali xisoblanadi. Albatta, birinchi o‘rinda yuqorida aytib o‘tilganidek qiz bolaning odob-axloqi, o‘zida ibo-hayo va ozodaligi kabi zebo xislatlarni mujassam etgan fe’l-atvori bilan to‘kis husnga ega hisoblangan. O‘tmish avlodlarimiz hayotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘z oldimizga Oybarchin, To‘maris, Qutlug‘nigorxonim, Gavharshodbegim, Zebiniso, Uvaysiy, Nodira – yana yuzlab nomlarini keltirish mumkin – bo‘lgan ayollarimiz borki, ular shiddatkorligi, oqilaligi, sabr-toqatliligi bilan birga ibo, hayosi bilan ham o‘rnak bo‘lishgan. O‘zbek ayoli hamisha ham niyatini ochiq aytavermaydi. Dilidagisini pardalab gapirishga urinadi. Buni bosh milliy dostonimiz «Alpomish»dagi bir qator tasvirlarda yaqqol ko‘rish mumkin. Chunonchi, qalmoqlarning to‘qson alpi zug‘umida qolgan Oybarchinning Alpomishga yozgan xatida bu holat yorqin ko‘zga tashlanadi. Qizning bitgan xati sof o‘zbekcha: “Oltoychalik yo‘lga keldim, to‘qson alpga toytalashda qoldim, olti oyga muhlat oldim, mendan umidi bo‘lsa, Alpomish kelsin, bo‘lmasa javobimni bersin”

Kaykovus ota-onaning yana bir muhim vazifasi farzand balog‘atga yetgach, o‘g‘il bo‘lsa uylantirib, qiz bo‘lsa uzatib, o‘z burchini ado etishi kerak, deb ko‘rsatadi. Ayniqsa qiz bola tarbiyasiga e‘tibor berish, unga g‘amxo‘rlik qilish kerakligini alohida qayd etadi: “Agar qizing bo‘lsa, uni mastura doyalarga topshirg‘il, toki yaxshi parvarish qilg‘aylar va kattaroq bo‘lg‘andin so‘ng muallimga topshirg‘il ... Balog‘atga yetgandan so‘ng harakat qilib erga berg‘il, unga shafqat va marhamat ko‘rguzg‘il, nedinkim qiz otaning asiri bo‘lur” Ona dunyodagi eng aziz va mo‘tabar zot sizni duo qilguvchi sizga uzoq umr tilovchi zot bu sizning onangizdir, lekin shunday odamlar borki, onaning qadriga yetmaydilar va yetganida kech bo‘ladi. Siz kechasi uyga kelganingizda sizni uxlamay kutib o‘tiradi va ikki og‘iz gap aytadi "bolam keldimi" siz esa "ha onajon keldim" deyish o‘rniga "e haliyam o‘tiribsizmi uxlasayiz bo‘lmaydimi" deb jerkib berasiz. Siz kelganizda o‘sha eng sevimli xotiniz ham farzandlariz ham shirin uyquda uxlab yotadi, lekin shu shirin uyqusidan voz kechib onangiz sizni kutib o‘tiradi siz esa shu uchun bir og‘iz shirin so‘zingizni ayaysiz. Yillar o‘tib onangiz vafot etsalar onangiz yotgan uy derzasidan ming marta o‘ting shu nido yangramaydi "bolam keldimi?" sizni bu gaplarim bilan qiynamoqchi emasman do‘stim siz onangizga bugun ayting "yelkamda ko‘tarib hajga olib boraymi?" deb bugun ayting zero ertaga bu baxt kimga nasib qiladi kimga yo‘q. Ilohim barchamizning onamiz baxtimizga sog‘ bo‘lishsin inshoolloh.

Biz tariximizga nazar solar ekanmiz yurtimiz juda ko‘p marta istelochilar qo‘lidan-qo‘liga o‘tib kelganini ko‘ramiz, buning sababi, avvalo, tabiatimizning boyligi bo‘lsa, keyingisi esa ma‘lum tarixiy davrlarda noto‘g‘ri siyosat oqibatida xalqimizning xaddan tashqari itoatkorlikka moyil bo‘lib qolganidur. Bugun biz mustaqilligimizni mustahkamlash, abadiy o‘zimizniki qilib saqlashimiz, uchun xurlikka, ozodlikka intilib yashaydigan farzandlarni dunyoga keltirishimiz va tarbiyalashimiz shart. Demak bunda jamiyatimizda yashayotgan har bir ayol o‘zini tanishi, qadr-qimmatini, burchi va haq-huquqlarini anglab yetishi lozim. Erkaklar va ayollar Olloh taolo tomonidan ularga omonat qilib berilganini, omonatni ehtiyotlab asrash farz ekanini, zulmkorlik, zo‘ravonlikni olloh qattiq la‘natlaganini va uning oqibati yomon bo‘lishini his etib yashasa, qolaversa, ular o‘z farzandlari va millat taqdiri uchun ayollarni barkamol qilish

yo‘lida qayg‘ursa, biz ko‘zlagan maqsadlarimizga erisha olamiz. Demak, yaxshi onalar kerak. Illo, yaxshi onalar millatimizning kelajagidir. Kelajak esa yonimizda e’tiborga, mehr-muhabbatga intizor bo‘lib turibdi. Ertangi farovon kunimiz hurmati, ayolga shavkatli va muruvvatli bo‘laylik! Zero insoniyatning baxti ham baxtsizligi ham ayolda mujassam bo‘lgan. Adabiyot namoyondalaridan biri, Sharl’ Bodler “Ayol – baxtga taklifnomadir” , deb dilbar so‘zlar bilan ayolni ulug‘lagan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <http://uchildiz.uz/ona-shunchalar-motabar-shunchalar-ulug/>
2. <https://ok.ru/group/54625191133212/topics>
3. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=127>
4. <https://oz.sputniknews.uz/20200310/zbek-ali-snggi-100-yil-davomida-anday-zgardi-13635437.html>
5. <file:///C:/Users/User/Downloads/o-quvchi-qizlar-tarbiyasida-sharqona-tarbiyaning-o-rni.pdf>
6. Kaykovus. “Qobusnoma”. Yangi avlod, 2018. - 86-bet
7. Xudoyqulov X.J. O‘zbek qizining g‘ururi - uning or-nomusi va odobidadir. - T.: “Dizayn-Press”, 2011. – 56 bet